

HANAFIYLIK MAZHABI VA FIQHIY USULLAR: IJMO VA QIYOSNING ROLI

Azamova Sitora Aynonovna

SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

SHDPI tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Rustamova Shahlo

Shahlorustamova624@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hanafiy mazhabining tarixan shakllanish jarayoni va undagi ahamiyatga molik manbalar keltirilgan. Bundan tashqari hanafiylikning tarqalishidagi ijmo va qiyosning roli haqidagi ma'lumotlar ham to'liq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Abu Hanifa, fiqh ilmi, ijmo va qiyos, hanafiylik ta'limoti, istehson, hadislar va Qur'oni Karim.

Hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit al-kufiy hisoblanadi. Ammo mazhabni shakllantirishda uning o'quvchilari Abu Yusuf va Muhammad ibn al-Xasan ash-Shayboniylarning xizmati kattadir. Hanafiya mazhabi asosan, Albaniya, Bosniya va Gersegovina, Turkiya, Suriya, Iroq, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Turkmaniston, O'zbekiston, Qizg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya, Jibuti va Eretriya mamlakatlarda keng tarqalgan. Hanafiya mazhabi rivojida Movarounnahr faqihlarining o'rni beqiyosdir. X-XII asrlar davomida Yaqin Sharq mamlakatlarida shialik tazyiqi ostida so'nib borgan hanafiy markazlarni Saljuqiylar, Usmoniylar imperatorligi davomida aynan Movarounnahr hanafiylari qaytadan tikladilar. Ular barcha markazlar uchun ustozlar bo'lib qoldilar. Movarounnaharga hanafiy mazhabi Muhammad ibn al-Xasanning buxorolik shogirdi Abu Xafs al-Kabir al-Buxoriy olib kelgan. Keyinchalik Abu Sulaymon al-Juzjoniyy Xurosonda Hanafiy

mazhabini tarqatgach, uning shogirdi Abu Bakr al-Juzjoni Samarqandga kelib joylashadi va bu yerda “Dor al-Juzjoniya nomli ilm markazini tashkil etadi. Buxoro olimlari asosiy e’tiborini fiqhga qaratishgan bo’lsa, Samarqand olimlari aqid va kalom ilmiga moyil bo’lishadi. Hanafiy mazhabi “nass”lardan (ya’ni Qur’oni Karim va hadis) tashqari hadislarni qabul qilishda alohida shartlarni belgilaganligi, qiyos, istehson prinsiplaridan foydalanishi, Morarounnahr maktabi mahalliy urf-odatlarini huquq manbai sifatida qabul qilishi bilan ajralib turadi. Boshqa mazhablaridan farqli jihatlar mazkur xususiyatlari negizida yuzaga keladi. [1]

Hanafiy tarixini o’rganish, uning rivojlanish bosqichlarini ko’rib chiqish, taraqqiyot va tanazzul davrlarini belgilashda Islom fiqhini davrlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar tarixi olti bosqichdan iborat deb belgilaganlar. Birinchisi Payg’ambar davri. Ushbu davrdagi fiqh ikkiga: Makka va Madina davriga bo’lib o’rganiladi. Ikkinchisi katta sahobalar davri. U xulafoyi roshidin davridagi fiqhga oiddir. Uchinchisi katta sahobalar va kattatobeinlar davri. U xijratning birinchi asri VII asr oxirigacha davom etdi. To’rtinchi davr fihiy mazhablar paydo bo’lgan va fiqhning mavzularga ajratilib, bir tartibga solingan vaqtdagi fiqh. Bu VII asrning boshidan X asr o’rtalarigacha davom etgan. Buning avvalgi 737-yillarda Abu Hanifaning fatvo berish va dars berish davriga to’g’ri keladi. Oxirini esa X asr deb belgilanishi Abbosiylar davrining zaiflashish vaqtiga to’g’ri keladi. Bu fiqh avjiga chiqqan vaqt, islom fiqhining asoslari shakllari ulgurgan davr. Beshinchi davr esa mazhablar dalillanishi, tarjiy masalalari ishlab chiqilgan davr. Buni ba’zilar mazhablarga taassub qilish davri ham deydilar. Bu davr X asr o’rtalaridan to XIII asr o’rtalarigacha, aniqrog’i, abbosiylar xalifaligi qulagan ya’ni 1258-yilgacha bo’lgan. Oltinchi davr – taqlid davri deb nomlanadi. XIII asr o’rtalaridan bugungi kunlargacha bo’lgan davr. Barcha mazhablar doirasida susayish va pasayishlar kuzatiladi. Bu davrning avvali turg’unlik, oxiri muzlash bilan tugaydi. Shu bilan birga, ko’p ulamolar yetishib chiqqan, ko’plab fatvo to’plamlari yozilgan. Hanafiy mazhabidagi eng ahamiyatli fihiy manbalar: 1) “**Al-Kofiy**” (Kifoya qiluvchi). Hokimush shahid asari bo’lib, unda Muhammad

ibn Husan Shayboniyning “Zohirur rivoya kitoblari” deb ataladigan oltita mashhur asaridagi rivoyatlar to’plangan. Muallif Shayboniyning “Al-Mabsut” asarini takroriy keltirilgan masalalar ko’p bo’lgani uchun kam o’qiyotganlarini ko’rib, takrorlarini keltirmasdan muxtasar bir asar yozishni ko’zlagan. Shuning uchun ushbu asar hanafiy mazhabining asosi deb ham ataladi.

2) **”AL-Muntaqo”**(Tozalangan).Xokimush shahid asari bo’lib, “Zohirur rivoya”dan boshqa “navodir” masalalarini o’zida jamlagan. Shu boisdan ham e’tibor jihatdan Shayboniyning asarlaridan keyingi o’rinda turadi.

3) **”Al-Mabsut”**(Kengaytirilgan). Shamsul aimma Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy qalamiga mansub ushbu asar Xokimush shaxidning “Al-kofiy” nomli kitobiga yozilgan sharx hisoblanadi. [2]

Hanafiy mazhabidagi fiqhiy dalillar bayon qilinganda har bir hukm quyidagi dalillarning biri bilan hujjatlangan bo’lmog’i lozimligi ta’kidlanadi.

- 1) Qur’oni Karim;
- 2) Sunnati navabiya;
- 3) Ijmo;
- 4) Qiyos;
- 5) Istehson;
- 6) Al-Masolix al-murasala;
- 7) Urf va taomul;
- 8) Sha’ru man qoblana;
- 9) Sahobalar va tobeinlar mazhabi;
- 10) Sadduz zaroye’
- 11) Istisxob.

Ushbu qismlardan Hanafiy mazhabida doimiy qo’llanib keladi.[3]

Ijmo lug’atlarda “azmu qaror, ittifoq” ma’nolarida bo’lib, fiqhiy istilohda Payg’ambar (sollalohu alayhi va sallam)dan keying biror asrda musulmon mujtahidlarining sha’riy hukmga qilgan ittifoqi”dir. Demak, bu borada avomlar ittifoqi, fiqhiy usul qoidalardan behabar mutakkalim va muhaddislar kelishuvining e’tibori yo’q. Shuningdek, sha’riy hukmdan boshqada – lug’aviy,

aqliy narsalar, dunyoviy va maishiy ishlardagi kelishuvda “ijmo” bo’lmaydi. Xanafiy mazhabining usulul fiqhga oid asarlarda ijmo quyidagi turlarga bo’linishi zikr etilgan:

- Sahobalarning yakdillik bilan biror hukmga ittifoqlari;
- Ba’zi sahobalarning biror hukmga kelishuvi, ayrimlari esa biror fikr bildirmay jim turishlari;
- Sahobalardan keying davrlardagi mujtahidlarning barchasi sahobalar tomonidan birorta fikr aytilmagan hukmga kelishuvlari;
- Sahobalarning birovi aytgan hukmga keyingi davr mujtahidlarining ittifoqi bilan qo’shilishlari.

Ijmoning mazkur turlaridan birinchi Qur’on oyati va mutavotir hadis, uchinchi mashhur hadis, to’rtinchisi oxod sahih hadis darajasidadir. Keying davr tadqiqotchilari ijmoni ochiq-ravshan va sukutiy turlarga ajratib o’rganishni maqbul sanaganlar. [4]

Qiyos lug’atlarda “o’lchamoq, taqqoslamq, solishtirmoq” ma’nolarida bo’lib, istilohda esa oyat, hadis va ijmodan dalili bo’lmagan ishning hukmini ularda dalili bor ishning hukmiga solishtirish, taqqoslash, tenglashtirishga aytiladi. Demak, sha’riy hukmi bo’yicha dalili bor voqea yoki narsaga dalili yo’q voqea yoki narsani tenglashtirish “qiyos” deyiladi. Bu yerda hukmni yangitdan paydo qilinmaydi, balki bor hukmni mujtahid tomonidan topiladi. Qiyos sahiy to’g’ri bo’lishi quyidagi shartlar bo’lishi kerak:

- Oyat va hadisga teskari bo’lmasligi;
- Oyat va hadisdan olingan hukmlarni o’zgartirmasligi;
- Qiyos qilinayotgan hukmning ma’nosi aniq, tushunarli va aqlga muvofiq bo’lishi, taabudiy (illatni aql bilan bilib bo’lmaydigan) ish bo’lmasligi ;
- Qiyos lug’aviy yoki boshqa narsadan emas, balki sha’riy hukmdan chiqarilishi;
- Oyat va hadisning hukmi qiyos qilinayotgan narsaning dalili bo’lmasligi;
- Oyat va hadisda hukm kelishiga sabab bo’lgan barcha narsalar qiyos qilinayotgan hodisa yoki narsaga hukm qilishga ham sabab bo’lgan barcha

narsalar qiyos qilinayotgan hodisa yoki narsaga hukm qilishga ham sabab bo'lishi kerak. [5]

Hanafiylik mazhabining tarixan shakllanishi va rivojlanishi nafaqat Movaronnahr balki butun islom olamida muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur mazhab islom huquq tizimining murakkab va rivojlangan tizimlardan biridir. Ushbu tizimda ijmo va qiyosning o'rni beqiyosdir. Ijmo va qiyosning roli Hanafiy mazhabining zamonaviy hayot bilan hamohangligini ta'minlaydi shuningdek, ijmo va qiyos hanafiylikda fiqhiy qarorlar chiqarishda bir-birini to'ldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Mo'minov, X.Yo'ldoshxo'jayev, D.Rahimjonov, M.Komilov, A.Abdusattarov, A.Oripov "Dinshunoslik" Toshkent-2004.
2. X.Aminov, S.Primov "Xanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari" Toshkent-2007.
3. S.Saidjalolov "Islomdagi mazhablar va oqimlar" Toshkent islom universiteti nashriyati manba birlashmasi 2012.
4. Abdulloh ibn Muhammad OriF "Muallafot fuqahoyi kirom va usuliyin" Din va mashiat matbasi Orenburg 1914.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zaxabiy "Manokibu Imom Abu Xanifa va soxibayhu Abu Yusuf Muhammad ibn Hasan" Xaydarobod 1998.
6. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
7. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 15-28.

8. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
9. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
10. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
11. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
12. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
13. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.